

AMALIY MASHG'ULOT. ENERGIYANING BIR TURDAN BOSHQA TURGA AYLANISHI

Xavfsizlik qoidalari:

- Elektr kavsharlash jarayonida ehtiyot bo'ling.
- Yelimlash jarayonida ehtiyot bo'ling.

Mashg'ulotning maqsadi: energiyaning saqlanish va aylanish qonunini o'rganish.

Kerakli jihozlar: 2 ta yog'och bo'lagi (bittasi taglik o'lchami 25x5x2 cm, bittasiga chizg'ichni ishlatsa ham bo'ladi), 2 ta DVD disk, 2 ta plastik idish (baklashka) qopqog'i, 2 ta bolt-gayka va shayba, ruchkaning ustki plastmassa qismi, 1 dona elektr dvigatel, yorug'lik diodi, termoyelim, elektr kavsharlagich, karton.

Ishni bajarish tartibi

1. Chizg'ichning bir tomonidan 5 cm masofada nuqta belgilang va shu nuqtadan bolt sig'adigan kenglikda teshik oching.
2. Yelim yordamida chizg'ichni yog'och brusokka mahkamlang.
3. Kartonni disk shaklida qirqib, ikkala disk orasiga yelimlang (bunda kartondan qirqib olingan disk diametri DVD disk diametridan kichikroq bo'ladi).
4. Ikkala diskning tashqi tomoni o'rtasiga plastik idish qopqog'ini yelimlang.
5. Qopqoqning o'rtasidan teshik oching va bolt-gayka yordamida chizg'ichga mahkamlang.
6. Diskni ixtiyoriy joyidan teshib, ikkinchi bolt-gaykani mahkamlang. Boltning ortiqcha qismi ustiga ruchkaning plastmassa bo'lagini kiydirib, gayka yordamida mahkamlang (bunda plastmassa bo'lagi bolt ustida bemalol aylana olsun).
7. Elektr dvigatelni yog'och brusokning ikkinchi tomoniga yelimlang.
8. Ulovchi simlar yordamida elektr dvigatelning ikkita qutbiga yorug'lik diodini elektr kavsharlagich yordamida ulang.
9. Rezina halqaning bir tomonini elektr dvigatelning shkifli g'il-diragiga, ikkinchi tomonini esa disk orasidagi karton disk ustiga kiydiring.
10. Bolt ustiga ruchkaning plastmassa qismi kiydirilgan ushlagichidan ushlab aylantiring.
11. Disklarni aylantirganda dvigatelga mahkamlangan yorug'lik diodning yonishini kuzating va xulosa chiqaring.



1. Siz energiyaning bir turdan boshqasiga o'tishini yana qanday amaliy mashg'ulot yordamida ko'rsata olasiz?
2. Qanday energiya boshqa qanday turdagi energiyaga aylanishini kuzatgansiz?
3. Yuqorida bajargan amaliy ishingizdagi jihozlardan qaysilarini boshqa jihoz bilan almashtirsa ham, amaliy ishni bajarsa bo'ladi?
4. Yuqoridagi amaliy mashg'ulotda qanday energiya boshqa qanday energiyaga aylandi?

